



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш бошқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadbirkorlikni rivojlantirish orqali kambag‘allikka qarshi kurashish samarali bo‘lishi uchun ta‘lim, moliya, infratuzilma va mentorlik mexanizmlari o‘zaro bog‘liq holda amal qilishi lozim. Ana shu kompleks yondashuv asosida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy natijalarga erishish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2024 yildagi “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-347-son Qarori.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 11 августдаги “Камбағал ва ишсиз фуқароларни тadbirkorlikka жалб қилиш, уларнинг меҳнат фаоллигини ошириш ва касб-хунарга ўқитишга қаратилган ҳамда аҳоли бандлигини таъминлашга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4804-сонли Қарори.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 03.12.2021 йилдаги “Маҳаллада тadbirkorlikni ривожлантириш, аҳоли бандлигини таъминлаш ва камбағалликни қисқартириш масалалари бўйича ҳоким ёрдамчилари фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-31-сон Қарори. <https://lex.uz>
4. Антонов М.В. Оценка количественных и качественных характеристик занятости в малом предпринимательстве в целях совершенствования ее регулирования: дис. ... канд. экон. наук: 08.00.05. – М., 2018. – 221 с

UDK:336.6

KICHIK KORXONALAR INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI SAMARALI BOSHQARISHDA JAHON AMALIYOTI TAJRIBASI

МИРОВОЙ ОПЫТ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬЮ МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ

INTERNATIONAL EXPERIENCE IN EFFECTIVE MANAGEMENT OF INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF SMALL ENTERPRISES

Ergashev Ilhomjon Ikromovich

Andijon davlat texnika instituti Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, i.f.f.d (PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada kichik korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda jahon mamlakatlari tajribasi ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlarda kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, davlat siyosati, moliyaviy institutlar hamda innovatsion infratuzilmaning roli o‘rganildi. Shuningdek, kichik korxonalar faoliyatiga investitsiyalarni jalb etishda institutsional islohotlar, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va davlat-xususiy sektor hamkorligining ahamiyati asoslab berildi. Tadqiqot natijalari kichik biznesning iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash va investitsion faollikni oshirishdagi muhim o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, investitsiyaviy jozibadorlik, investitsiyalar, davlat siyosati, innovatsiyalar, biznes inkubator, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, iqtisodiy rivojlanish.

В данной статье научно анализируется мировой опыт повышения инвестиционной привлекательности малых предприятий. В ходе исследования рассмотрены механизмы государственной поддержки малого бизнеса, роль финансовых институтов, инновационной инфраструктуры и государственной политики в развитых и развивающихся странах. Особое внимание уделено институциональным реформам, финансовой поддержке и сотрудничеству

государственного и частного секторов в привлечении инвестиций. Результаты исследования подтверждают значительную роль малого бизнеса в обеспечении экономической устойчивости и инвестиционной активности экономики.

Ключевые слова: малый бизнес, инвестиционная привлекательность, инвестиции, государственная политика, инновации, бизнес-инкубаторы, финансовая поддержка, экономическое развитие.

This article provides a scientific analysis of international experience in enhancing the investment attractiveness of small enterprises. The study examines support mechanisms for small businesses, the role of government policy, financial institutions, and innovation infrastructure in both developed and developing countries. Special attention is given to institutional reforms, financial support instruments, and public-private partnerships aimed at attracting investments. The findings highlight the significant role of small enterprises in ensuring economic stability and increasing investment activity.

Keywords: small business, investment attractiveness, investments, government policy, innovation, business incubators, financial support, economic development.

Bugungi globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik korxonalar milliy iqtisodiyotlarning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omillardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ular iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi [1].

So'nggi yillarda ko'plab mamlakatlarda kichik korxonalar iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lib, ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Rivojlangan davlatlarda bu maqsadga erishish uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar, davlat kafolatlari, biznes inkubatorlar va texnoparklar kabi kompleks mexanizmlar joriy etilgan [2].

Shu nuqtai nazardan, kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda jahon tajribasini o'rganish va ilg'or boshqaruv mexanizmlarini milliy sharoitga moslashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi – kichik korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarish mexanizmlarini tahlil qilishdir.

Kichik korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini oshirish va uni samarali boshqarish masalasi iqtisodiyot fanida keng tadqiq etilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu masala bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turli nazariy yondashuvlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular asosan institutsional muhit, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda innovatsion rivojlanish omillari bilan bog'liq holda o'rganilgan.

Amerikalik iqtisodchi Joseph Schumpeter o'zining “The Theory of Economic Development” asarida iqtisodiy o'sishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi tadbirkorlik va innovatsiya ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, kichik korxonalar yangi texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiyotda “ijodiy buzilish” (creative destruction) jarayonini yuzaga keltiradi va aynan shu omil investorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi [5].

Shuningdek, Michael Porterning “The Competitive Advantage of Nations” asarida mamlakatlarning raqobatbardoshligi korxonalar klasterlashuvi va innovatsion muhit rivojlanganligi bilan bog'liqligi asoslab berilgan. Porteriga ko'ra, kichik bizneslar sanoat klasterlari tarkibida faoliyat yuritganda resurslardan samarali foydalanadi, bu esa ularning investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi [6].

Kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari David Storey tomonidan “Understanding the Small Business Sector” asarida keng tahlil qilingan. Muallifning fikricha, kichik korxonalar rivoji bevosita davlat siyosatining sifati, moliyaviy institutlar mavjudligi va tadbirkorlik infratuzilmasiga bog'liq bo'lib, davlat kafolatlari investitsiya risklarini sezilarli darajada kamaytiradi [7].

Mahalliy iqtisodchi olim A. Vahobovning ilmiy ishlarida esa O‘zbekiston sharoitida kichik biznesni rivojlantirish investitsiya muhitini yaxshilash, moliyaviy infratuzilmani kengaytirish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish bilan uzviy bog‘liqligi ko‘rsatib berilgan. Olimning ta’kidlashicha, kichik korxonalar uchun barqaror huquqiy muhit investorlar ishonchini shakllantirishning asosiy sharti hisoblanadi [9].

Yuqoridagi ilmiy qarashlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini oshirish ko‘p omilli jarayon bo‘lib, unda innovatsiya, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, davlat siyosati va bozor infratuzilmasi o‘zaro uyg‘un holda faoliyat yuritishi zarur. Demak, jahon ilmiy adabiyotlarida ushbu masala kompleks yondashuv asosida o‘rganilgan bo‘lib, samarali boshqaruv mexanizmlarini shakllantirishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Mazkur tadqiqotda kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini baholash va boshqarish mexanizmlarini o‘rganishda tizimli va kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, iqtisodiy-statistik usullar, mantiqiy umumlashtirish hamda ilmiy abstraksiya metodlari qo‘llanildi. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasini taqqoslash orqali kichik biznesni qo‘llab-quvvatlashning samarali modellari aniqlab olindi.

Kichik korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarish masalasi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarda kompleks yondashuvni talab etadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, kichik biznes subyektlariga investitsiyalar oqimi nafaqat moliyaviy resurslar mavjudligi, balki institutsional muhit sifati, davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari, innovatsion infratuzilma hamda boshqaruv samaradorligiga ham bevosita bog‘liq hisoblanadi.

Ilmiy adabiyotlarda kichik biznesning investitsion rivojlanishdagi o‘rni keng yoritilgan. Masalan, P. Drucker o‘zining “Innovation and Entrepreneurship” asarida innovatsiya va tadbirkorlik iqtisodiy o‘rinishning asosiy manbai bo‘lib, aynan kichik korxonalar yangi kapitalni jalb qilishda eng moslashuvchan subyekt ekanligini ta’kidlaydi [10]. Shuningdek, J. Schumpeter iqtisodiy rivojlanish nazariyasida innovatsion tadbirkorlikni investitsion faollikning asosiy drayveri sifatida baholab, kichik firmalar iqtisodiyotda “ijodiy vayronkorlik” jarayonini yuzaga keltirishini asoslab bergan [11].

Quyidagi jadvalda ayrim davlatlarda kichik biznesning iqtisodiyotdagi o‘rni va investitsion jozibadorlikka ta’sir etuvchi asosiy ko‘rsatkichlar umumlashtirildi.

1-jadval

Kichik biznesning iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi o‘rtacha ulushi (2010–2020 yy., %)

Mamlakat	YAIMdagi ulushi (%)	Bandlikdagi ulushi (%)	Eksportdagi ulushi (%)
Germaniya	53,8	79,0	55,9
Yaponiya	50,0	70,2	53,8
AQSh	46,0	49,4	33,7
Janubiy Koreya	49,4	87,5	30,9
Xitoy	60,0	80,0	50,0
Hindiston	17,0	40,0	40,0
Turkiya	32,0	72,0	28,0

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda kichik biznes nafaqat bandlikni ta’minlash, balki eksport salohiyatini oshirishda ham muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa Germaniya va Yaponiya tajribasida kichik korxonalar sanoat kooperatsiyasi orqali global qiymat zanjirlariga integratsiyalashganligi kuzatiladi. Bu esa investorlar uchun risk darajasining pasayishiga va kapital qo‘yilmalar hajmining ortishiga olib keladi.

M. Porter o‘zining “The Competitive Advantage of Nations” asarida milliy raqobatbardoshlik bevosita kichik va o‘rta biznes klasterlari rivojlanganligi bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlab, klasterlashuv investitsiya samaradorligini oshirishini ilmiy jihatdan asoslab beradi [12]. Ushbu nazariya Germaniya va Janubiy Koreya tajribasida amaliy tasdig‘ini topgan bo‘lib, sanoat klasterlari kichik korxonalar uchun texnologiya almashinuvi va investorlar bilan aloqalarni kuchaytiradi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan yaratilgan biznes infratuzilmasi investitsion muhit sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Jahon banki tadqiqotlariga ko‘ra, biznesni

ro‘yxatdan o‘tkazish jarayoni soddalashtirilgan mamlakatlarda startaplar soni o‘rtacha 25 foizga yuqori bo‘ladi [13]. Bu esa investitsiya muhitining institutsional omillarga qanchalik bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Shuningdek, innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari investitsion jozibadorlikni oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. R. Nelson va S. Winter texnologik rivojlanish nazariyasida innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlovchi institutlar mavjudligi korxonalar uzoq muddatli investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatini oshirishini ta’kidlaydi [14]. Yaponiya va Janubiy Koreyada texnoparklar hamda startap markazlari aynan shu model asosida faoliyat yuritadi.

Shunday qilib, amalga oshirilgan tahlillar kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarish ko‘p komponentli tizim bo‘lib, moliyaviy, institutsional va innovatsion omillarning o‘zaro uyg‘unligi asosida shakllanishini ko‘rsatdi. Natijalar shuni tasdiqlaydiki, jahon tajribasidagi kompleks yondashuv iqtisodiyotda kichik biznesning barqaror rivojlanishini ta’minlashda eng samarali model hisoblanadi.

Mazkur tadqiqot natijalari kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini oshirish zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim shartlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Tadqiqot tahlillari shuni namoyish qiladiki, kichik biznes iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini jadallashtirish, bandlik darajasini oshirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega. Shu bois, kichik korxonalar faoliyati uchun qulay investitsion muhit yaratish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozim.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, kichik korxonalarining investitsiyaviy jozibadorligi moliyaviy resurslarga kirish, institutsional barqarorlik va boshqaruv samaradorligi bilan uzviy bog‘liq. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi davlat tomonidan kredit kafolatlari, soliq imtiyozlari va biznes inkubatorlarini qo‘llab-quvvatlash investitsiya oqimini sezilarli oshirishini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, kichik biznesni klasterlashuv asosida rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish investor ishonchini oshiruvchi muhim omillardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Porter M.E. The Competitive Advantage of Nations. New York: Free Press, 1990, 852 b.
2. Beck T., Demirgüç-Kunt A., Levine R. SMEs, Growth and Poverty: Cross-Country Evidence. *Journal of Economic Growth*, 2005, Vol. 10(3), pp. 199–229.
3. Audretsch D.B., Keilbach M. Entrepreneurship Capital and Economic Performance. *Regional Studies*, 2004, Vol. 38(8), pp. 949–959.
4. Ismoilova X.M. Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llari. Andijon: Qo‘qon universiteti nashri, 2021, 112 b.
5. Ganijonova R. Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi. Andijon: Qo‘qon universiteti nashri, 2020, 88 b.
6. U.S. Small Business Administration (SBA). Small Business Economic Profile Report. Washington DC, 2021, 134 b.
7. KfW Bankengruppe. SME Development Programs and Financing Report. Frankfurt am Main, 2020, 102 b.